

DOSTONLARDA KELITIRILGAN OBRAZLAR.

F. Mamatqulova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

R. Uzoqov

KDPI 3-kurs talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada obraz haqida hamda, dostonlarda keltirilgan obrazlar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Adabiyotshunos, doston, obraz, badiiy obraz, manzara, ijod, badiiy asar, "Alpomish".*

O'zbek adabiyotshunoslari obrazlar tasnifiga to'xtalar ekan, ularni yaratilish usuli, uslub va tasviriy vositalar, ijodiy metod asoslariga ko'ra, asar qurulishidagi o'rniga qarab murakkablik va ko'lamlilik, perdmelik va umumlashmalik darajasiga, ifoda va tasvir planlari munosabatiga ko'ra qator turlarga bo'lib tahlil qilingan.

Obraz ruscha so'z bo'lib, "manzara", "ko'rinish" ma'nolarini ifoalaydi. Obraz badiiy asarning mavjudlik shakli bo'lib, u aniq bir shaxs, voqea yoki hodisa va tushunchani umumlashtirishi bilan birga tasvirdagi badiiy asarning mohiyatini anglatadi.

Badiiy obraz – adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug'aviy ma'nosida har qanday aksni bildiruvchi "obraz" so'zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma'noda qo'llanadi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u "badiiy obraz" ma'nosida tushuniladi. Badiiy obraz deganda, borliq (undagi inson, narsa, hodisa va h.)ning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik – badiiy borliqdir.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz keng va tor m'noda ishlatiladi. Biz keng ma'nodagi obrazlarga ijodkor tomonidan borliqdagi barcha unsurlarning kuzatilgan, qayta ishlangan aksini ko'ramiz. Badiiy asarlar tahlilida kichik bir detalgacha bachasi ma'lum bir g'oyaviy yuk ifodalaydi va obraz sifatida nazarda tutiladi. Obrazning tor ma'noda qo'llanilishida esa badiiy asarlardagi inson obrazi asos qilib olinadi. Demak, badiiy adabiyotning markaziy tushunchalari inson obrazi asosida yuzaga chiqadi. Badiiy asardagi boshqa obrazlar esa inson tasvirini atroflicha yoritishga xizmat qiladi. Demak inson adabiyotning asosiy tasvir vositasi hisoblanadi, shuni inobatga olgan holda bosh qahramonlari hayvonalar bo'lgan masallarda ham majoziy ravishda asosiy g'oya insonlarning hatti-harakatlarini, psixologik holatlarni yoritishga qaratilgan.

O'rxun-Enasoy bitiklaridan bizga ma'lumki, ajdodlarimiz ayolga, onaga o'zgacha mehruhabbat bilan munosabatda bo'lib kelishgan. Ayollarga o'zgacha mehr, e'tibor ko'rsatishgan. Dostonlarda qo'llaniladigan «Gul yuzli», «zulfizar», «mohi paykar», «gulsanam», «sarvinoz», «guloyim», «dilbar», «qalamqosh», «lablari qirmiz», «shirin so'zli», «shakar labli» kabi go'zal tashbehlar ularga bo'lgan izzat va hurmat, e'tiqod, ilohiy

munosabat xalqimiz psixologiyasida qadim-qadim davrlardan buyon yashab kelayotganidan xabar beradi. .Ko'pgina tarixiy manbalar bu ma'lumotlarni to'la tavsiflaydi. Eng asosiysi shuki, ayollar, ya'ni xotunlar bo'lg'usi xoqonlarning onasi bo'lganliklari uchun ham ularning tarbiyasiga, mavqeyiga katta e'tibor berganlar.

Bu tasavvurlar «Alpomish» dostonida Barchin va Qaldirg'och obrazlari orqali yaxshi ochib berilgan. Barchin o'zbek eposida alp ayol obrazi hisoblanib, o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishicha Barchin ismining asosi ham "bars", "ilvir", "yo'lbars" degan ma'noni anglatadi. Insonlarga ism hayoti mobaynida unga hamrohlik qilishi istalgan sifatlarga monand tarzda qo'yiladi. "Alpomish" dostonida Barchinga ism qo'yilishi bilan bog'liq epizodlar turli variantlarda turlicha tasvirlanadi. Xususan, dostonning Berdi baxshi variantida Barchinga Xizr bobo tomonidan ism berilishi jarayoni: "Shunda Xizr bobom borib: – Qizning oti Barchin bo'lsin, mullaga beringlar, mulla Barchin bo'lsin, chochbog'iga boylab tosh o'tsa, bir tosh yerga ketsin, jamoli ham bir tosh yerdagini yiqsin, – deb duo qilib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketdi. "Xalqqa ibrat bo'lsin", – deb aka-uka quda bo'ldi"– deya tasvirlanadi. Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida esa: "Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon pining etagiga soldi. Shohimardon piri Boybo'ring o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizining otini oy Barchin qo'ydi. Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib: «Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar», – deb fotihani betiga tortdi", tarzida ko'rsatiladi. Bundan ko'rinadiki, ismning Shohimardon pir va Hizr bobo tomonidan berilgani, uning tanlangan qismat egasi bo'lganligi, ismi jismiga monand bo'lishi, ushbu obrazning yetakchi o'rinda ekanligini ifodalaydi.

Dostonlarda keltirilgan obrazlar, she'rlar va hikoyalarda qizg'anch, tasvirlar va tavsiflar orqali aks etilgan xayollar, tabiati, insonlarning ko'ngillari va dunyosi bilan bog'liq tasvirlar bo'lishi mumkin. Dostonlardagi obrazlar, kitobning maqsadi va muallifining orzu, fikr, his-tuyg'ularini namoyish etish, o'qitish va aks ettirish niyatiga erishish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, obrazlar dostonning xalqaro o'ziga xos usullari va stilistik qobiliyatlarini ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Ular orqali dostonlardagi hikoya, xalq hayoti, tabiat va insonning o'zining spiriti va dunyoviy o'qitishlari o'qibatda o'ziga xos va samimiy bir shakldagi rasmga aylantiriladi.

Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish va o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi, kabi birqator tushunchalar ham inson obrazini ochib berish uchun xizmat qiladi. Inson obraziga yozuvchi tomonidan berilgan ta'rif muallif xarakteristikasi deb yuritiladi. Bunda obrazning fe'l atvoriga oid asosiy xususiyatlar ochib beriladi. Muallif xarakteristikasining asarda joylashuv o'rni turlicha, ba'zan yozuvchi qahramonni tanishtirish maqsadida asar boshidanoq uni ta'rifini bayon qiladi, yoki biror bir voqelikka olib kirish uchun asarning turli o'rinlarida ta'riflarini keltiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O,,zbek xalq qahramonlik dostoni /Aytuvchi:
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2018.
4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Bookmany Print. 2022.